

## BUXORO VILOYATI SUV VA YER RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Habibova Sabina Jamshid qizi

Buxoro viloyati G’ijduvon tuman

56-maktab Geografiya fani o ‘qituvchisi

Habibovas171@gmail.com

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada Buxoro viloyati suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish samaradorligi haqida keng yoritilgan

**Kalit so’z :** Buxoro, suv , yer , resurslar, qishloq xo’jalik, yo’l xaritasi, O’zagroinspeksiya”

### KIRISH QISM

O’zbekistonda so’nggi yillarda barcha sohalar kabi suv xo’jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo’jaligi ob’yektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Suv xo’jaligi sohasidagi mavjud muammolar (suv tanqisligi va suv resurslariga ta’sir ko’rsatuvchi omillar, jumladan, iqlim o’zgarishi, aholi sonining o’sishi, suvga bo’lgan talabning oshib borishi)ni aniqlash, ularni o’z vaqtida bartaraf qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish anchagina mashaqqatni talab etadi. 2019–2020 yillarda suv xo’jaligi sohasini tartibga soluvchi jami 30 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagagi “O’zbekiston Respublikasi suv xo’jagini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo’ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-6024-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan Konsepsiya sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish va suv xo’jagini rivojlantirish bo‘yicha qator dolzarb vazifalar hamda ustuvor yo‘nalishlarni o’z ichiga olgan. Mazkur hujjatda 2030 yilga qadar quyidagi ko’rsatkichlarga erishish ham nazarda tutilgan: sug’orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish; suv ta’minoti past darajada bo’lgan sug’oriladigan yer maydonlarini 560 ming hektardan 190 ming gektargacha kamaytirish; sho’rlangan sug’oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish; Suv xo’jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste’molini 25 foizga kamaytirish; barcha irrigatsiya tizimi ob’yektlariga “Aqli suv” suv o’lchash va nazorat qilish qurilmalari o’rnatalib, suv hisobini yuritishda raqamlı texnologiyalarni joriy etish; 100 ta yirik suv xo’jaligi ob’yektida suvni boshqarish jarayonlarini avtomillashtirish; qishloq xo’jaligi ekinlarini sug’orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerkarning umumiyligi maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilab sug’orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish; suv xo’jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihami amalga oshirish. Shuningdek, Konsepsiada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha 37 banddan iborat bo’lgan “Yo’l xaritasi” va konsepsiyanı amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy maqsadli ko’rsatkichlar va indikatorlar belgilangan. O’zbekiston Respublikasi suv xo’jagini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo’ljallangan konsepsiyasida belgilangan vazifalarni 2020–2022 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo’l xaritasi”da belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minalash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni qo’llash. Respublikamizda 2020 yilda 133,6 ming hektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Shu tariqa o’tgan

yillar davomida tejamkor sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlar 291,2 ming gektarga yetkazilib, jami sug'oriladigan yerlarning 7 foizga yaqinini tashkil qilmoqda. Jumladan, 43 ming 40 gektar, shundan 20 ming 650 gektar paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish, 2 ming 210 gektar maydonda yomg'irlatib sug'orish, 4 ming 249 gektar maydonda diskret (pulsar) sug'orish texnologiyasi qo'llanilgan bo'lsa, 84 ming 162 gektar maydonda ko'chma egiluvchan quvurlar orqali sug'orish ishlari amalga oshirilgan. Suv xo'jaligi tizimida jami 28,4 ming km irrigatsiya tizimi mavjud bo'lib, ularda 54 432 ta har xil gidrotexnika inshooti qurilgan. Tizimda umumiy hajmi 19,4 mlrd. m<sup>3</sup> bo'lgan 70 ta suv ombori va sel omboridan foydalanib kelinmoqda. Suv xo'jaligi tarmog'ida energiya sarfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar. Paxta va g'alla yetishtirish xarajatlарining yana bir katta ulushi nasos stansiyalarini faoliyatini ta'minlab beruvchi elektr energiya xarajatlari hisoblanadi. Suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan ilmiy loyihalar va xalqaro grantlar 2020 yilda 21 ta mavzudan iborat jumladan, Suv xo'jaligi vazirligining byudjet mablag'lari hisobidan 12 ta hamda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 9 ta mavzudagi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Buxoro filiali, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti hamda Axborot-tahlil va resurs markazi tomonidan bajarilgan. Keyingi yillarda mamlakatimiz yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishni soddalashtirilgan tartibini qo'llash, yer va suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmidagi, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish, past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur vazifalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5742-sonli farmoni qabul qilingan. Unga ko'ra, qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiysi va uning "Yo'l xaritasi", 2020 - 2030 yillarda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirning prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangan. 2020 - 2030 yillarda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradoligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar asosida Respublikada 1 111 723 gektar, Buxoro viloyatida 39063 gektar, Jondor tumanida esa 6105 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlarining foydalanishga kiritilishi rejalashtirilgan. Bu boradagi harakatlar esa boshlab yuborilgan. "O'zagroinspeksiya"ning Buxoro viloyati boshqarmasi Jondor tuman bo'limi tumanda yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha joriy yilning yanvar-may oylari mobaynida o'tkazilgan nazorat tadbirlariga ko'ra, 34 holatda yer, 8 holatda suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibini buzganlik holatlari aniqlandi va O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning tegishli moddalari bilan huquqbuzarlarga nisbatan 11,6 mln.so'm miqdorida ma'muriy jarimalar qo'llanildi. Darhaqiqat, maqsadimiz yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish uni muhofaza qilish, Qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlashdan iboratdir. Xulosa o'rnida aytish kerak, mamlakatimiz aholisining aksariyat qismi qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Ularning ish bilan bandligi, hayot tarzi va turmush kechirishi bevosita yer bilan bog'liq. Shunday ekan aholini ta'minlashi kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari unumdar yerlarni yo'qotayotganimiz sabab kamayib ketishi mumkinligi haqida ham bosh qotirishimiz kerak.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish kerak, mamlakatimiz aholisining aksariyat qismi qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Ularning ish bilan bandligi, hayot tarzi va turmush kechirishi bevosita yer bilan bog'liq.

Shunday ekan aholini ta'minlashi kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari unumdar yerkarni yo'qotayotganimiz sabab kamayib ketishi mumkinligi haqida ham bosh qotirishimiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

I. D.Fayzullaev, A.Shokirov. Sug'orish san'ati. – T.: Fan nashriyoti, 1990. 62 b.

2. F.O'Jo'rayev. Tuproqshunoslik, dehqonchilik va meliorasiya asoslari. Buxoro - 2020. 161-172 b.

3. Ўзбекистон сув хўжалигига амалга оширилган ишлар ва соҳани ривожлантириш истиқболлари - Review.uz

4. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-suv-xojaligida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-sohani-rivojlantirish-istiqbollari>